

YOSHLAR TAFAKKURIDA MILLIY URF ODATLAR VA AN'ANALARIMIZ TALQINI

Urayimova Zebuniso Ilyosbek qizi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti pedagogika fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi*

Annotatsiya. *Maqolada folklorshunoslikning nima ekanligi, uning paydo bo'lishi va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga folklorshunoslik tarixiga oid faktlar va folklorshunoslik tarixida iz qoldirgan shaxslar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar : *Folklor, folklorshunoslik, an'ana , an'anaviylik, xalq.*

Abstract: *The article talks about what folklore is ,its emergence .At the same time, facts about the history of folklore and people who left a mark in the history of folklore are also given .*

Key words: *Folklore , habit , traditional.*

Har bir xalq , millat o'zining tarixiy madaniyati bilan alohida ajralib turadi. Milliy xalqchiligimiz ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib kelmoqda . Ajdodlarimiz qadryatlari , an'analari asrdan- asrga , avloddan- avlodga saqlanib taraqqiy topmoqda . Jumladan, milliy madaniy xususiyatlarimiz saqlanib qolinishida xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos . Xalqimizning o'ziga xos marosim va urf – odatlari , mehmondorchilik tabiati , axloq -odob qoidalari , mehnat va turmush tarzi tartibi folklor asarlari orqali bizgacha yetib kelib , milliy merosimizga aylandi. Shu boisdan ham folklorshunosligimizni tariximiz bilan bog'lovchi ko'prigimiz , desak xat6 bo'lmaydi. Millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri - ma'naviyatidan boshlanadi.

Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz. Tilimizga, madaniyatimizga, o'zligimizga bo'layotgan ma'anaviy tahdid ko'lami ham katta. Biz ma'naviyat to'g'risida har qancha qayg'urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta'sirida hamda yoshlarmiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan, bizning qilayotgan urinishlarimiz o'z samarasini bermaydi. Shu sababli ham bugungi folklori o'rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Inson m a'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi, deyishimiz mumkin. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi . Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng avvalo har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bulaming barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida,

maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtlarida til o'qitishda, o'rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi. Xalqning til boyligi birinchi navbatda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Aynan shu ma'noda ham milliy ma'naviyatimizga folklorimizning o'rni beqiyos. Shu o'rinda folklor atamasi, uning yaratuvchisi hamda o'rganilish tarixi ham tabiiy holda o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Xo'sh, folklor o'zi nima? „Folklor“ atamasi „xalq“ va „donolik“ so'zlaridan yasalgan va u „xalq donoligi“, „xalq donishmandligi“ ma'nolarini anglatadi. Ushbu atamani ilk bora 1846- yil Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida ishlatgan. Folklor atamasini o'z navbatida keng va tor ma'nolari mavjud. Tor ma'noda biz uni faqat so'z san'ati -xalq og'zaki poetik ijodi deb tushunsak, keng ma'noda xalq ijodining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Masalan xalq nasri, xalq poeziyasi, musiqasi, raqsi, rassomligi, o'ymakorligi, diniy e'tiqodi va odatlarini ham ifodalaydi. Ushbu atama o'zbek folklorshunosligi tarixida nisbatan keyinroq ko'rina boshlagan. U dastlab „og'zaki ijod“, „og'zaki adabiyot“ deb yuritilgan. 1935- yilga kelib Xodi Zarif va Yunus Rajabiyilar sa'i harakatlari bilan nashrdan chiqqan „O'zbek sovet folkloridan namunalar“ kitobida qo'llanilgandan so'nggina „o'zbek folklori“ atamasi zamirida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Shu davrgacha folklor asarlaridan namunalar yig'ilmaganmi? Javob o'laroq folklorning o'rganilish tarixiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. O'zbek folklori asarlari yozib olinishi, to'planilishi tarixi haqida gap ketganda, uning boshlang'ich nuqtasi X asrlar deb belgilashimiz to'g'ri bo'ladi. Aynan shu davrda yashab ijod qilgan Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiyning „Buxoro tarixi“ asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar va o'tmishda bo'lib o'tgan voqea- hodisalar haqidagi afson va rivoyatlar keltirilganligi so'zimiz isbotidir. Asardagi rivoyat va afsonalar xalq og'zaki ijodi namunalari ekanligi o'z isbotini topgan. XI asr qomusiy olimi Mahmud Qoshg'ariyning butun turkiy qavmlar diyoriini kezib maqol, matal, riviyat, afsona qo'shiq kabi folklor namunalarini yig'ib „Devon ul lig'ot- at turk“ asarini yaratganligini aytib o'tishimiz joiz. Aynan shu asar XI asrda ham folklor namunalarini to'plash va kelgusi avlodga yetkazib berish uchun qililgan sa'i harakatlar dalilidir. Bu asarni yozishdan avval muallif uzoq yillar mobaynida turkiy qavmlar istiqomat qiluvchi deyarli barcha viloyatlarni kezib chiqqan va materiallarni to'plagan. Bu haqida muallif o'z asarida: „Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shahar, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar davomida kezib chiqdim.“ deb aytib o'tadi. Shuningdek, maqol va matal yozib olib, ularning xususiyatlarini o'rganib, ular haqida so'z yuritgan Zamaxshariy, Xorazm diyoriining eng qadimgi mif, afsona, rivoyat va hikoyalarini o'zining „Qissasi Rabg'uziy“ asarida jamlagan Nosiriddin Rabg'uziy, o'zbek xalq she'riyatining ko'plab janrlarida ijod qilgan va ular haqida fikr yuritgan Alisher Navoiy, musiqa folkloriga doir materiallarni to'plagan Darvesh Ali Changiy, o'zbek xalqining marosimlari, urf- odatlari va rivoyatlari haqida qiziqarli ma'lulotlarni o'z asarida keltirgan Zahiriddin Muhammad

Bobur ham o'zbek folklori asarlarining to'plovchilari va o'zbek folklor o'rganilish tarixida munosib o'rin qoldirgan insonlardir. „Folklor“ atamasini ishlatar ekanmiz bevosita unga muqobil sifatida xalq og'zaki ijodi tushunchasini ham qo'llayapmiz . Bundan anglashiladigan ma'no shuki , millat o'zining mafkurasi va ruhiyatini badiiy vositalar orqali ifodalab berishidan folklor vujudga kelgan. Demak , xalq -folklorning yaratuvchisidir .Folklorda an'anaviylik o'ziga xos xususiyatdir . U folklor asarlarining g'oyaviy- estetik mohiyatini belgilaydi. An'ana -o'ziga xos ijtimoiy hodisa, kishilar hayotida, ongida o'rnini topgan, avloddan -avlodga o'tib takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib -qoidalardir .An'analar ham foydali va zararli bo'ladi .Shunga ko'ra ular 2 turga bo'linadi. Birinchi turi an'anaga aylangan xayrli ishlar marosimlar bo'lsa , ikkinchi turi an'anaga aylangan ammo keraksiz va zararli marosim , udum , faoliyat yo'nalishlaridir.

Istiqloq o'zbek folklorshunosligining jahon miqyosiga intilishida keng yo'l ochib berdi. Milliy hurlik baxsh etgan ijod erkinligi tufayli xalq og'zaki ijodi namunalarini uzoq ajdodlarimizning tarixi, turmush tarzi, ibtidoiy, diniy va e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq holda o'rganish imkoniyati tug'ildi. Natijada ilgari sho'ro mafkurasi taqiqi tufayli nashr etilmagan „Shoh Mashrab qissasi“ (1991), „Ibrohim Adham“ qissasi singari diniy-axloqiy xarakterdagi xalq kitoblari xalqimiz uchun taqdim etildi. Sho'ro tuzumi vakillari tomonidan yo'q qilingan Navro'z qayta tiklandi. Shu munosabat bilan har yili Respublika miqyosida ulkan xalq sayllari o'tkazish an'anaga aylanib qoldi . Shu ommaviy harakat tufayli juda ko'p unutilib borayotgan an'anaviy xalq ijodi namunalarini, urf-odatlarini qayta tiklanib, xalqimiz mentalitetini ifoda etuvchi milliy qadriyatlar sifatida e'zozlandi. Bu jihatdan, ayniqsa, har yili bahorda Boysunda o'tkaziladigan „Boysun bahori“ ko'rik-tanlovi, xalq baxshilari ko'rik- tanlovari, Jizzax viloyatida o'tkaziladigan „O'zbek xalq o'yinlari“ va Termizda o'tkaziladigan „Alpomish o'yinlari“ tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, YUNESKO qarori bilan 1999-yilda o'zbek xalqining nodir dostoni „Alpomish“ yaratilganligining 1000 yilligi va xalqimiz mifologik tafakkurining nodir durdonasi „Avesto“ yaratilganligining 2700 yilligi o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lib, jahon miqyosida o'zbek folkloriga qiziqishni kuchaytirdi.

Folklor qadimiy so'z san'ati sifatida nafaqat g'oyaviyligi balki badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqealarni ifodalashning doston, ertak ,maqol, qo'shiq, afsona, rivoyat, askiya kabi janrlari shakllangan, ya'ni o'zbek folklori xilma- xil janrlardan tarkib topgan qadimiy so'z san'atidir. U orqali biz o'tmishda yashagan ajdodlarimizning turmush tarzi, ruhiyati va dunyoqarashini bilishimiz mumkin. So'zimiz isboti sifatida keling folklor namunalarimizdan biri bo'lgan yor yorni misol qilaylik .

Dalada toychoq kishnaydi yo
Ot bo'ldim deb yor yor ot bo'ldim deb
Uyda kelin yig'laydi yo
Yot bo'ldim deb yor yor yot bo'ldim deb

Taxta taxta ko'prigi yo
Taxting bo'lsin yor yor taxting bo'lsin
Payg'ambarning qizidek o
Baxting bo'lsin yor yor baxting bo'lsin.
Payg'ambarning qizini yo
Kim ko'rgan bor yor yor kim ko'rgan bor
Ota , ona mehriya yo
Kim to'ygan bor yor yor kim to'ygan bor

Milliy an'analarimizdan biri bo'lgan to'y marosimida yanga va momolarimiz tarafidan aytiladigan bu yor yor kelin uchun ham taskin berish ham ezgu niyatlar ifodasidir.

Avliyolar yor bo'lsin
Qo'yning to'la nor bo'lsin
Jonim bolam alla yo
Qo'zim bolam alla
Osmondagi uchurdek
Uchalasi ham birdek
Sen bolamni so'rasang
Ochilgan qizil guldek
Alla yo alla
Jonim bolam alla
Ko'tarib kattolar qilay
O'qitib mullolar qilay
Quloq solgin o alla
Orom olgin alla

Bir necha misralar ohangdoshligi orqali biz onaning farzandiga bo'lgan mehrini , kelajakda farzandidan kutayotgan umidlarini, xalqimiz chindan ham bolajon xalqligini ,azal - azaldan bola va uning tarbiyasiga katta e'tibor qaratganligini va „ dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek ” ta'rifiga mos ekanligini bilishimiz mumkin.

V.M. Miller xalq ijodiyotiga “ xalqshunoslikning tarkibiy qismi” sifatida qaraganligi ham uni nechog'lik ilm-fan uchun, millat uchun qadrli ekanligini ko'rsatadi. Asrlar mobaynida millatimiz, xalqimizga katta ruhiy va ma'naviy quvvat bo'layotgan qadryatlarimiz, folklor asarlarimizni yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda hukumatimiz keng imkoniyatlar yaratdi. Bu imkoniyatlardan foydalanib yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."O'zbekiston xalqlar etnografiyasi va folklori" O.Safarov, D.O'rayev, M.Qurbonova. Toshkent- 2007
- 2."Folklorshunoslikka kirish" M. Jo'rayev, J. Eshonqulov.Toshkent- 2017.
- 3."Devon ul lug'ot-at turk" M.Qoshg'ariy.